



DEVELOPMENT AND ANALYSIS OF ORAL SPEECH USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Avazova Feruza Bahadirovna

feruza.avazova80@gmail.com

Tashkent city

Senior teacher. Department of the second language

Uzbek State World Languages University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17614954>

ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 15th November 2025

KEYWORDS

Interactive methods, language learning, speaking skills, educational technology, Indonesian as a foreign language.

ABSTRACT

This article discusses one of the key tasks of modern education — teaching students to act independently in the rapidly developing information and educational environment and to use the flow of information wisely. To achieve this, it is essential to provide students with continuous opportunities and conditions for independent work. Systematic and effective implementation of these goals requires the use of modern pedagogical technologies and interactive teaching methods that enhance oral communication skills. In our country's education system, it is necessary to improve foreign language teaching by developing and integrating new pedagogical technologies focused on communicative competence, as well as textbooks and learning materials equipped with information technologies. Therefore, in the process of training specialists, it is crucial to effectively apply advanced educational technologies. Modern educational technologies and innovative teaching methods play an invaluable role in acquiring knowledge, sharing it with others, applying it in practice, and creating new knowledge. To increase learning efficiency, teachers should make extensive use of computer technologies in the classroom, as this makes foreign language lessons more engaging and innovative for students.

РАЗВИТИЕ УСТНОЙ РЕЧИ И ЕЁ АНАЛИЗ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Avazova Feruza Bahadirovna

feruza.avazova80@gmail.com

Город Tashkent. Старший преподаватель
кафедры второго языка

Узбекский государственный университет мировых языков

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17614954>



ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 15th November 2025

KEYWORDS

Интерактивные методы,
изучение языка, навыки
устной речи,
образовательные
технологии, индонезийский
язык как иностранный.

ABSTRACT

В данной статье одной из современных задач образовательного процесса является обучение студентов самостоятельной деятельности в постоянно развивающейся информационно-образовательной среде, а также умению рационально использовать поток информации. Для этого необходимо создать условия и возможности для их непрерывной самостоятельной работы. Для системной и эффективной реализации вышеуказанных целей важное значение имеют современные педагогические технологии и интерактивные методы обучения, способствующие развитию устной речи. В системе образования нашей страны необходимо совершенствовать преподавание иностранных языков путем создания и внедрения в учебный процесс новых педагогических технологий, ориентированных на речевое общение, а также учебников и учебных пособий, оснащенных информационными технологиями. В связи с этим одной из актуальных задач является организация эффективного использования передовых образовательных технологий в процессе подготовки специалистов. Современные образовательные технологии и передовые методы обучения играют важную роль в получении знаний, их передаче другим, практическом применении и создании новых знаний. Для повышения эффективности обучения преподавателю важно широко использовать компьютерные технологии в учебном процессе, что делает занятия по изучению иностранных языков более интересными и современными для студентов.

**SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH VA
UNING TAHLILI**

Avazova Feruza Bahodirovna

feruza.avazova80@gmail.com

Toshkent shahar

Ikkinchi chet tili kafedrası katta o'qituvchi

Uzbek State World Languages University



ARTICLE INFO

Received: 08th November 2025

Accepted: 14th November 2025

Online: 15th November 2025

KEYWORDS

Interfaol metodlar, til o'rganish, og'zaki nutq ko'nikmalari, ta'lim texnologiyasi, chet tili sifatida indonez tili.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Yuqoridagilarni tizimli va samarali amalga oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va og'zaki nutqni o'stirishda interfaol ta'lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida chet tillarni o'qitishda nutqiy muloqotga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni yorituvchi va informatsion texnologiyalar bilan jihozlangan darsliklar, o'quv-qo'llanmalarni yaratish va o'quv jarayoniga joriy etib, xorijiy til ta'limini yanada takomillashtirish zarur. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi kundagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ilg'or ta'lim metodlarining bilim olish, olingan bilimni boshqalarga o'rgatish, bilimlardan amalda foydalana bilish va yangi bilimlarni yaratishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun pedagog dars o'tish jarayonida komp'yuter texnologiyalardan keng foydalanish chet tillini o'rganayotgan talabalarga darsning yangi metodda borishi juda qiziqarli bo'ladi.

Texnologiya bugungi kunda hayotning deyarli har bir sohasiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda va ta'lim bundan mustasno emas. Texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi hozirgi kunda ta'lim tizimida o'rni beqiyos hisoblanib zamon talablaridan kelib chiqmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy uslublar ta'limning sifat va samaradorligini oshirib, raqobatdardosh kadrlar tayyorlashga xizmat kiladi. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jixatdan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning tugri tashkil etilganligiga boglikdir.

Ta'limda, ta'lim texnologiyalar juda muhim rol o'ynaydi, chunki u bugungi o'qituvchilarga yangi texnologiyalardan va vositalarni o'z darslarida integratsiya qilish,



o'qitish va o'rganishni yaxshilash maqsadida o'quv muhitini, o'quv materiallarini, o'quvchilarni va o'qish jarayonini tahlil qilish, loyihalash, ishlab chiqish, joriy etish va baholash orqali og'zaki nutqni rivojlanishni bir qismidir. Oliy oq'uv yurtlarda o'qitish, o'qish, o'rganish samaradorligini oshirish uchun, ma'ruza jarayonida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazma quroli, audio va video qurilmalardan foydalanish, o'qituvchi o'z nutqini to'xtatib, talabalardan ma'lumotlarni qay holda qabul qilish darajasini bilish, ularning qiziqishi va xohishini oshirish maqsadida muammoli savollar, qiziqarli faktlar keltirishi talabalarda qiziqishini oshirishga ayni muddao bo'ladi.

Bunda o'quv-biluv faoliyatining barcha unsurlari-tinglash, ko'rish, aniqlash, taqqoslash, fikr yuritish, mulohazani bayon qilish, amalga oshgan bo'ladi. Shuningdek, mazkur yondashuvda ayrim usullarni masalan, ma'ruza, suhbat, tasvir, muammoli-izlanish, reproduktiv to'siq metodlarni ko'rish mumkin bo'ladi.

Sh.M.Mirziyoev quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Biz Yangi O'zbekistonni bunyod etishda sog'lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san'at va sport bo'yicha salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz. Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!"¹. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev ham bu siyosatni davom ettirgan holda "Biz bundan buyon ham ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rgatish masalasiga ustuvor ahamiyat beramiz. Shu bilan birga, biz uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim olish va kadrlar malakasini oshirish ishlarini keng ko'lamda yo'lga qo'yamiz.

Ta'lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Yuqoridagilarni tizimli va samarali amalga oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va og'zaki nutqni o'stirishda interfaol ta'lim metodlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida og'zaki nutqni rivojlantirishda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Sun'iy intellekt, onlayn platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari, ovozli tahlil dasturlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir kishi o'z nutqini takomillashtirish uchun samarali vositalarga ega bo'ladi. O'z nutqini rivojlantirishda texnologiyalarni to'g'ri qo'llash foydalanuvchilarga nafaqat kommunikatsiya, balki o'z o'zini ifoda etishda ham yordam beradi.

Hozirgi kunda eng e'tiborli o'zgarishlardan biri o'quv materiallarini raqamlashtirishdir. An'anaviy darsliklar o'rnini interaktiv elektron kitoblar, zamonga talab beradigan darsliklar va onlayn manbalar, multimediyaga boy kontentlar, hozirgi kunda online shug'ullanish uchun ko'p platformalar mavjud va You Tube kanallarida bir qancha dars roliklari mavjud bo'lib o'rganuvchi bemalol foydalanish mumkin. Pedagog xodimlar faoliyat samaradorligi va muvaffakiyati ularning kasbiy tayyorgarligi, malakaga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: "O'zbekiston", 2017.



egalik darajasi, zimmasidagi vazifalarni bajarishga nisbatan ijodiy yondashishi hamda o'z ustida kunt va izchillik bilan ishlashi asosida ta'minlanadi. Har bir pedagog xodim faoliyati davomida uzluksiz ta'limga va kasbiy mahorati ustida mustaqil ishlashga bo'lgan talab va tayyorgarligini takomillashtirish bilan bir vaqtda o'z sohasi bo'yicha yaratilayotgan axborotlar oqimining muhimligi va zarurligini bilishi, mustakil xolda axborotlarni ishlashi, turli manbalardan, ya'ni internet tarmogidan, jumladan mustaqil o'rganuvchi indonez tili fanini o'rganish uchun You Tube kanalida - Learn Indonesian with Indonesian Pod 101.com, Learn Indonesian online, Kendra's Language School, Learn Indonesian, Easy Indonesian, Education World va Ibrat farzandlari video darslardan foydalanib, o'rganuvchi nafaqat o'rganishni balki yanada qiziqarli ma'lumotlarni egallab o'lishga imkon beradi.

Chatbotlarni qo'llashda o'quvchilarning munosabatlari haqida fikrlari o'rganildi. Ushbu tadqiqotlarda olingan xulosalar ko'p jihatdan qarama-qarshi bo'lib, turlicha natijalarga olib kelgan. Masalan, X. Da-Yeun [Da-Eun, 2022]² o'z tadqiqotida koreyalik o'quvchilarning chet tilidagi darslarda chatbotni qo'llashga bo'lgan ijobiy munosabatini ta'riflaydi. Virtual yordamchi bilan darslar o'tayotgan o'quvchilar o'zlariga ishonchi oshganini, chet tilini o'rganishga motivatsiyasi kuchayganini, hamda qo'rqish qobiliyati kamayganini qayd etgan. Ushbu natijalarni avtor shunday tushuntiradi: ko'pgina o'quvchilar leksik yoki grammatik xatolar qilishdan, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishdan yoki mavzuni tushuntirishdan qo'rqishadi, bu esa ularga o'qituvchi yoki sinfdoshlar bilan an'anaviy darslarda bog'lanishda ogohlik va qiyinchilik tug'diradi. Virtual suhbatdosh bilan aloqa qilish ushbu qiynalishlarni yengib o'tishga yordam beradi va tabiiy muhitda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon yaratdi.

Shu kabi natijalarni E. Xariato va R. Ali [Haryanto, Ali, 2019]³ tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotda ham ko'rish mumkin, u Indoneziyaning Djambi universiteti talaba yoshlarining Siri virtual yordamchisini nutqiy amaliyotda qo'llanilgan. Studentlar Siri ni chet tilini o'rganishda, ayniqsa, gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda ajoyib yordamchi deb hisoblashgan. Virtual yordamchi bilan suhbatlashar ekanlar, ular o'zlarini ishonchli his etgan, chunki dastur talaffuzdagi noto'g'riliklar va talabalar tomonidan sodir etilgan grammatik xatolarga nisbatan loyol bo'lgan. Siri ba'zan studentlarning nutqini noto'g'ri tushunishiga qaramay, ular uni "ajoyib o'qituvchi" sifatida qabul qilishgan, u sekin, ammo ishonchli ravishda talabalarga xorijiy til kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam bergan. Siri bilan kundalik aloqa olish talaba-yoshlarga chet tilida gapirishda ishonchni oshirish va tilda suhbatlashishdan qo'rqishni yengishga yordam bergan.

To'liq qarama-qarshi natijalar Seo Yan Yon [Yoon, 2019]⁴ning ishida keltirilgan bo'lib, unda Janubiy Koreyaning Beksok universitetining birinchi va ikkinchi kurs

² X. Da Yeun "The Effects of Voice-based AI Chatbot on Korean EFL Students' Speaking Ability and Affective Factors" International Journal of Computer Science and Information Technology for Education 5(1):25-30, DOI:10.21742/IJCSITE.2020.5.1.03

³ Eddy Xariato va R. Ali (2019). "Students' attitudes towards the use of artificial intelligence siri in EFL learning at one public university". International Seminar and Annual Meeting BKS-PTN Wilayah Barat. Journal, Vol. 1, No. 1, 190-194

⁴ Yoon, Seo Young. (2019). Student readiness for AI instruction: perspectives on AI in university EFL classrooms. Multimedia-Assisted Language Learning, 22(4), 134-160



studentlari orasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari tasvirlangan. Javob berganlarning asosiy qismi sun'iy intellekt texnologiyalarining til o'rganishda qo'llanilishiga oid savollarga salbiy munosabat bildirgan. Bir tomondan, studentlar sun'iy intellekt texnologiyalarini zamonaviy, foydali va samarali deb tan olishgan. Lekin, ular noma'lumlikdan xavotir his etganlar. Shuning uchun ham, studentlar chat-botlarni yosh va o'rta maktab o'quvchilari bilan qo'llashni qabul qilmay, o'qituvchi va ustozlar o'rnini to'liq mashinaga almashtirish mumkin emas, deb baholagan. Bu kabi so'rov natijalari Janubiy Koreyaning madaniy qadriyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, chunki mamlakatda o'qituvchi va ustozga juda yuqori hurmat ko'rsatiladi.

Hulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va chatbotlar yordamida og'zaki nutqni rivojlantirish va tahlil qilish hozirgi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar foydalanuvchilarga nutqni yaxshilash, grammatik va talaffuzdagi xatolarni tuzatish, yangi so'zlar va iboralarni o'rganish imkoniyatini beradi. Sun'iy intellekt yordamida og'zaki nutqni tahlil qilish va rivojlantirish jarayonlari, shuningdek, til o'rganish, muloqot va emotsional intellektni yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Kelajakda bu texnologiyalar yanada rivojlanib, nutqni yanada mukammal va samarali tarzda tahlil qilish va rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.

Ta'lim tizimida fan- texnika yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborotlar bilan tanishish, xalqaro internet tarmog'idan foydalanish bilan bir paytda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarini qo'llash ham alohida muhim ahamiyatga ega. Xususan, sun'iy intellekt va chatbotlar kabi texnologiyalar insonlar bilan muloqotni yaxshilash va og'zaki nutqni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida nutqni tahlil qilish, to'g'ri va aniq ifodalash, tilni o'rganish hamda ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Sun'iy intellekt talabalarda gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. TED Talks, YouTube Learn Indonesian with Indonesian Pod 101.com, Learn Indonesian online, Kendra's Language School, Bahasa Buddy, Kahoot, Google Assistant, Siri va Alexa kabi ilovalar, videoplatformalar orqali nutqni tahlil qilish va oshirish imkonini beradi. Shuningdek, interaktiv darslar yordamida talabalar o'zaro fikr almashish va mavzularni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi tomonidan videokonferensiyalar yoki online darslar tashkil qilish ham talabalar bilan interaktiv aloqani kuchaytiradi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib shuni aytish lozimki, zamonaviy texnologiyalar o'zaki nutqni o'stirishda katta rol o'ynaydi. Interaktiv doskalar, mobil ilovalar, onlayn platformalar orqali talabalar real vaqtda suhbatlarga qo'shilishlari, videolarni tomosha qilishlari va nutqni mashq qilishlari mumkin.

Bu esa talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirib, turli interfaol usullar va grafik organayzerlar orqali samarali va sifatli darslar tashkil etishga yordam beradi.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 – 56 bet



2. Solovyova L.D. Puti sovershenstvovaniya kachestva uchebnogo protsessa pri obuchenii inostrannogo yazyka // "Tillar o'qitish nazariyasi va amaliyoti: yangicha izlanishlar" ilmiy-uslubiy anjuman materiallari. –T., 2000.
3. X. Da Yeun "The Effects of Voice-based AI Chatbot on Korean EFL Students' Speaking Ability and Affective Factors" [International Journal of Computer Science and Information Technology for Education](#) 5(1):25-30, DOI:[10.21742/IJCSITE.2020.5.1.03](https://doi.org/10.21742/IJCSITE.2020.5.1.03)
4. Eddy Xariato va R. Ali (2019). "Students' attitudes towards the use of artificial intelligence siri in EFL learning at one public university". International Seminar and Annual Meeting BKS–PTN Wilayah Barat. Journal, Vol. 1, No. 1, 190–194
5. Yoon, Seo Young. (2019). Student readiness for AI instruction: perspectives on AI in university EFL classrooms. Multimedia-Assisted Language Learning, 22(4), 134–160